

XITOYLIK PROFESSOR BILAN MULOQOT

Tajriba ilmiy va amaliy faoliyatdan kelib chiqadi. Har qanday nazariya amaliyotdan quvvat oladi va o'zining mohiyatini namoyon etadi. Bu borada xorijlik olimlar bilan uchrashuv ham asqotishi aniq. "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrası professor-o'qituvchilari va HidroLeaders guruhi a'zolari bilan Xitoy fanlar akademiyasi qoshidagi Xinjiang ekologiya va geografiya instituti professori Lan Zhiqiang va ilmiy tadqiqotchilar ishtirokida davra suhbatı bo'lib o'tdi. Davra suhbatı jonli tarzda, samimiyat ruhida kechdi. Tegishli savollarga to'la va to'g'ri javob olingani ahamiyatli bo'ldi.



Institut Matbuot markazi rahbari Rahimboy Jumaniyozov